

## QOVUN URUG'INING UNUVCHANLIGINI LABORATORIYA SHAROITIDA ANIQLASH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7493035>



ELSEVIER



Received: 22-12-2022

Accepted: 22-12-2022

Published: 22-12-2022

**N.N.İsmoilova**

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti*

**A.S.Abdigapbarov**

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti*



**Abstract.** В этом статье высказывается, как можно определить всхожести семян дыни, о его показаний качеств. Влияние и нормы температур, о продлений анализных дни, методы проведений всхожести семян на термостате. В нём высказывается как можно определить о энергии прорастаний и всхожести семян..

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-12-2022

Accepted: 22-12-2022

Published: 22-12-2022

**Abstract.** In this article, it is stated how it is possible to determine the germination of melon seeds, about its indications of qualities. The influence and norms of temperatures, about the extension of the analysis days, methods of seed germination on the thermostat. It expresses how it is possible to determine the energy of germination and germination of seeds.

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

### Kirish.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020- 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"si tasdiqlanganligi sababli, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish nazarda tutildi. Shu oziq-ovqat sirasiga, qovun poliz mahsuloti xam eng muhim poliz ekinlaridan hisoblanib, iste'mol uchun katta ahamiyatga ega.

Qovun (lat. Cucumis melo) - qovoq oilasiga mansub o'simlik (Cucurbitaceae), bodring turiga mansub tur (Cucumis), qovun madaniyati. Qovunning vatani O'rta Osiyo va kichik Osiyo hisoblanadi. Qovun - tuproqning sho'rlanishi va qurg'oqchilikka chidamli, yuqori namlikka toqat qilmaydigan issiq va fotofil o'simlik.



Bitta o'simlikda, xilma – xilligi va etishtirish joyiga qarab, vazni 1,5 dan 10 kg gacha bo'lgan ikkitadan sakkiztagacha meva hosil bo'lishi mumkin. Qovun mevasi - qovoq-sharsimon yoki silindrsimon shaklga ega, yashil, sariq, jigarrang yoki oq rangga ega, odatda yashil chiziqlar bilan. Pishib etish davri ikki oydan olti oygacha..

**Asosiy bo'lim.** Ma`lumki, qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini ekinboplik sifat ko'rsatkishlari 2 usulda aniqlashga bo'ladi: dala va laboratoriya sharoitida.

Urug'larning o'nuvchanligini 2 usulda tekshirganda, orasida deyarli farq bor, ya'ni laboratoriya usulida urug'larning unuvchanligini tekshirganda unda aniq natijaga erishishga bo'ladi va shuning bilan birga ekish meyorida aniqlashga bo'ladi, dala sharoitida bo'lsa unday aniq natijaga erishish qiyin kechadi [2].

Biz bu taxlilni o'tkazish ob`ekti qilib, «Agrosanoat majmuida hizmatlar ko'rsatish markaz»i Qishloq xo'jaligi urug'larini ekinboplik sifat ko'rsatkishlarini aniqlash laboratoriyasida olib borildi. Bu tadqiqot davlat standartini normativ xujjatlar asosida olib borildi. Dastlab qovun urug'i olingan namunadan iflosligidan ajritib, unuvchanligini aniqlash uchun 200 dona subnamuna olamiz.

#### Tajriba o'tkazish tartibi:

Biz laboratoriya sharoitida urug'larning unuvchanligini aniqlash uchun Maxalliy sariq va Gurlan navlarini taxlil qilib ko'rdik. Eng avvalo, iflosligi aniqlangan urug'lardan 200 dona ya'niy ikkita navdan jami bo'lib 400 dona urug' ajratamiz.

Ekish uchun maxsus idishchaga (Petri chashkaga) tagiga fil`tr qog'ozini tushaymiz. Sung ustiga pipetka yoki leyka bilan shu idishchaga fil`tr qog'ozni namlaymiz. Namlangan idishga 100 donadan, urug' oralari ochiq holda (bir-biriga tegmaslik kerak) ekish kerak.



Idishlarga urug'larni joylab b'olib, termostatni tayorlaymiz. TPS -180 markali termostatni 15-20 °S darajaga quyamiz. Termostat ishidagi (kameradagi) issiqlik 15-20 °S b'olganda ekilgan idishchadagi urug'larni har polkaga q'oyiladi. Ekilgan vaqti, sanasi daftarchaga yozib q'oyiladi.

Umuman GOST 12038-84 standart talabi b'oyicha qovun urug'ining unuvchangligi 3/8 kun, yaniy 3-shi kuni o'sish energiyasini tekshiradi, 5-shi kunga kelib (yaniy 8 kun o'tkandan s'ong) unuvchanligini tekshiradi [2].

Ekin turi	Naveska, gr yoki dona	Harorat oS	Substrakt	Kuni	Sinfi	Tozaligi, %	Unuvchanli gi, %
Qovun	1	25	Fil`tr yoki qum	3/8	1	99	90
	00x4				2	97	75

Har kuni ekilgan urug'larni shu oldin ekilgan vaqt bo'yicha termostat eshigini ochib (5-10 daqiqa) shamollatiladi, so'ng urug' ekilgan idishlarning urinlari almashtiriladi, yaniy 8 kun davomida termostat ishidagi urug' bor idishlar har bir polka buylab va har bir tochkaga joylab borilishi kerak. Idishlarga ozgina miqdorda suv (qaynatib, sovutilgan, distillangan suv) quyiladi, so'ng termostat eshigi bekitiladi.

**Tadqiqot natijalari.** Bu jarayon 8 kun davomida birdek vaqtda amalga oshiriladi. 3-shi kuni bo'lganda urug'larning o'sish energiyasi aniqlanadi.

(1-jadval)

Navi	No	Ekilgan urug' soni	Urug'larnin g ósib chiqish energiyasi, dona.	O'sish energiyasi, o'rtacha %
Maxalliy sariq navi	1- idishcha	100	75	75
	2- idishcha	100	74	
	3- idishcha	100	74	
	4- idishcha	100	77	
Gurlan navi	1- idishcha	100	72	73,5
	2- idishcha	100	74	
	3- idishcha	100	75	
	4- idishcha	100	73	

Bunda 4 idishga ekilgan urug'larni laboratoriya stol ustiga chiqariladi va har bir idishni alohida-alohida pincet bilan unib chiqqan urug'larni unib chiqmaganidan ajratib boshlaymiz. Demak, qovun urug'ining ósish energiyasi Maxalliy sariq navida 75 %, Gurlan navida esa 73,5 % ni tashkil etdi.

Xali o'sib chiqmagan urug'larni qaytadan suv tomizib yana termostatga joylashtiramiz.

Umuman 8-shi kuni urug'larning unuvchanligini aniqlaymiz. Buning uchun urug' joylashgan idishlarni laboratoriya stol ustiga qoyip pincet bilan unib chiqqanini chiqmaganidan ajratamiz (2-jadval).

Navi	No	Ekilgan urug' soni	Urug'larning unuvchangligi, dona.	Umuman unuvchangligi, %
Maxalliy sariq navi	1-idishcha	100	18	19,25
	2-idishcha	100	22	
	3-idishcha	100	19	
	4-idishcha	100	18	
Gurlan navi	1-idishcha	100	18	17,5
	2-idishcha	100	15	
	3-idishcha	100	18	
	4-idishcha	100	19	

Yaniy 4-idishtagi urug'larning o'rtacha unuvchanlik darajasi aniqlaganimizda Maxalliy sariq navida 19,25 %, Gurlan navida esa 17,5 % ni tashkil qildi.

Xulosa qilib aytganda, Maxalliy sariq navi urug'ining o'sish energiyasi va unuvchanligi o'rtacha  $75+19,25=94,25\%$ , Gurlan naviniki esa  $73,5+17,5= 91\%$  ni tashkil etdi. Demak, bizlar laboratoriya sharoitida sinovga qo'iyilgan Maxalliy sariq navi urug'ining unvchanligi 94,25 % bo'lsa, Gurlan naviniki esa 91 % ni tashkil qildi. Ikkalasi xam 1-sinf talablariga javob berdi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Ostanaqulov T.E. // Poliz etishtirish texnologiyasi - 2003 yil, b. 358-359.
2. Xakimov R.A., Xakimova A.S., Toshmuxammedov A.A. // Poliz va poliz ekinlari urug'chiligi - 2003. B. 14,24.